

**KORXONA SIFAT MENEJMENTI TIZIMI STRATEGIYASINI
AMALGA OSHIRISH USULLARI**

Tuychiyeva Dilrabo Mamirjonovna

Andijon Davlat mashinasozlik instituti assistenti

Abdurashidov Kamoliddin Baxtiyorjon o'g'li

Andijon Davlat mashinasozlik instituti assistenti

Tel: +998 97 975 60 03

Email: kabdurashidov391@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada sanoat mahsulotlari sifatini yaxshilash, sifat menejmenti tizimining universalligi va prosedura hujjatlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tashkilotlarida jarayonni takomillashtirish uchun tashkilot sifat menejmenti tizimining protsedura hujjatlari va sifat sohasidagi siyosatini amalga oshirishi kerak. Bundan tashqari, izlanish davomida mamlakatimizda sifat sohasidagi siyosat to'g'risidagi masalalar, standartlashtirishni rivojlanish bosqichlari va o'zgarishlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Yengil sanoat, standart, siyosat, raqobatbardoshlik, siyosat, tovar va iste'molchi.

KIRISH

Bugungi kunda Jahon taraqqiyotini muhim strategiyalaridan biri bu sifat siyosatini jadal rivojlantirishdan iborat. Yagona sifat menejmenti tizimining rivojlanish bosqichlari hozirgi kundagi fan va texnikaning ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish samaradorligini oshiruvchi xavf-hatarlarni baholash shuningdek atrof-muhitni muhofaza qilish jarayonlarining faol tarqalishiga yordam beradi. Shu munosabat bilan aytish mumkinki, sifat sohasidagi siyosat bu jarayonning takomillashganini aks ettiruvchi faoliyat natijasidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARXI

Mazkur maqolani yoritish jarayonida SH.M.Mirziyoyevning sifmenejmenti sohasidagi farmoyishlari va mamlakatimizda sifat siyosatini rivojlantirishga

qaratilgan chora-tadbirlari metodologik manba sifatida belgilandi. Ushbu maqolada sifat siyosatining ilmiy, mantiqiylik va izchillik metodlaridan foydalanilgan. Izlanish jarayonida xalqaro ISO 9001–Sifat menejmenti tizimini respublika miqyosidagi statistika ma'lumotlari va prosedura hujjatlari tahlil qilingan.

Muhokama va natijalar

Sanoat mahsulotlari sifatini yaxshilash strategik muammo bo'lib, mamlakatimiz iqtisodiyotining stabillashuvi va bu muammolarning hal etilishiga

bog‘liqdir. Sifatni yaxshilash jarayoni mahsulotni sotish yoki mahsulot ishlab chiqarishda faqatgina ko‘proq foyda olish uchungina emas, balki jamiyat uchun va uning ravnaqi uchun ham zarurdir.

Sanoat mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirish maqsadida ISO 9000 seriyali standartlar qabul qilingach, sifatni kompleks boshqarishning ma‘lum darajasi belgilab beriladi. U sifatni samarali boshqarishni ta‘minlab, ISO 9000 seriyali standartlarning barcha zarur elementlari, hamda korxonada ixtisoslashuvi uchun qo‘shimcha talab etilgan elementlari ham, korxonaning ish amaliyotiga joriy etilishi kerakligini shart qilib qo‘yadi va bu bilan buyurtmachiga sifat kafolatini beradi. ISO xalqaro standartlarining universalligi shundaki, bu standartlar mahsulot va xizmatlarni to‘liqligicha xalqaro standart talablariga javob berishi, boshqa tashkilotlardan o‘zining sifatli mahsulotlari bilan ajralib turishi bilan birgalikda xaridorlar va sheriklar bilan ishonch hosil qilishni ta‘minlaydi.[1] Sanoat mahsuloti raqobatbardoshligini oshirishda sifat menejmenti mexanizmini rivojlantirish iste‘molchiga e‘tiborni qaratishga asoslangan bo‘lishi kerak. Korxonaning muvaffaqiyatli ishlashi, avvalo uning buyurtmachilariga bog‘liq. Shu boisdan, har qanday tadbirkorlik faoliyati bozorni tahlil qilish va mijozlarning ehtiyojini o‘rganishdan boshlashi kerak.

Mahsulot raqobatbardoshligini oshirishda rahbariyat ko‘magisiz salmoqli natijalarga erishib bo‘lmaydi. Tashkilot rahbarlari ishlab chiqarish faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini, maqsadlarini, shuningdek, ularni amalga oshirish usullarini belgilaydi. Ular shunday shart–sharoit yaratishlari lozimki, xodimlar nafaqat rahbariyat buyruqlarining ijrosiga, balki ishlab chiqarish masalalarini hal qilishda manfaatdor qatnashuvchilarga aylanishlari lozim.

Biz korxonaning samaradorligini va zaif tomonlarini SWOT tahlili orqali aniqlashimiz mumkin. Bu quyidagicha amalga oshiriladi:

Kuchli tomonlari	Kuchsiz tomonlari
Korxonalarni rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlarini ishlab chiqqanligi	Korxonalarda zamonaviy xizmat turlarini rivojlantirish bo‘yicha kadrlar yetishmasligi
Korxonalarda berilayotgan moliyaviy imkoniyatlar	Mahsulot va xizmatlarni eksport qilishda infratuzilmalarni yetishmasligi
Korxonalarda eksport qilish imkoniyatlarining yuqoriligi	Mahsulotlarni sotish va saqlashdagi muammolarning mavjudligi
Korxonalarda mahsulot va xizmatlarni diversifikatsiyalash imkoniyatlari	Xavf–xatar yoki tahdidlar
Ichki bozordan foydalanish imkoniyatlari	Ichki va tashqi bozorlarda narx navoning o‘zgarishi
Xorijiy bozorlarga chiqish imkoniyati	Jaxon bozorida raqobatning kuchayishi
	Davlatlardagi iqtisodiy siyosiy vaziyarni o‘zgarishi



SWOT–tahlili strategik rejalashtirish usuli hisoblanib, korxonaning ichki va tashqi muhitlardagi samarali va zaif omillarini aniqlashga qaratilgan. Ular quyidagilar:


–ichki muhit- korxonaning o‘zi boshqaradigan omillari. Ya’ni korxonaga o‘zini tanlovi, faoliyati va qarorlari bilan ularga ta’sir ko‘rsata oladi. Masalan, ishchilarning xatti-xarakatlarini belgilovchi korporativ boshqaruv tizimi;

– tashqi muhit esa biznes faoliyatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan, ularni o‘zgartirish korxonani qo‘lida bo‘lmaydigan omillarni o‘z ichiga oladi. Bunday omillarga raqobat, bozor, iqtisodiy, demokratik va ekologik omillar misol bo‘la oladi.

Yuqoridagi jadvaldan ma’lumki korxonaga faoliyatini boshqarishda kuchli tomonlar bilan bir qatorda, zaif tomonlar ham mavjud. Bu omillarni bartaraf etish uchun boshqaruv va xo‘jalik sub’ektlari rahbarlari bo‘sh tomonlarga alohida jiddiy e’tibor berishlari kerak.

Korxonaga oldindan belgilangan xavf va imkoniyatlariga nisbatan xarakteristikalar tizimini rejalashtirishi kerak. Bu rejalashtirishning mohiyati shundaki, korxonaga sifat sohasidagi siyosat bilan kelishilgan bo‘lishi bundan tashqari maxsulot va xizmatlarning muvofiqligini ta’minlash va iste’molchilarning qoniqishini oshirish bilan bog‘liq bo‘lishi kerak. Shundan keyin korxonaning har bir jarayon xizmatlari va ishlab chiqarish samaradorligi o‘z samarasini yuksaltiradi. Quyidagi jadvalda ISO 9001 standartini viloyatlar kesimidagi statistikasi keltirilgan.





Hozirgi kunda xalqaro jamiyatda iqtisodiyot integratsiyalashuvida hamda mamlakatning ichki bozor munosabatlarini rivojlantirishda ishlab chiqarishning texnikaviy darajasini va mahsulotning sifatini aniqlovchi xossalarini aniqlash va ko'rsatkichlarini baholashga har tomonlama hujjatlashtirilishi lozim. Tashkilot sifat menejment tizimini ishlab chiqishda hujjatlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Korxonalar sifat menejmenti tizimi proseduralarini, ya'ni sifat menejmenti tizimini joriy qilish uchun zaruriy jarayonlarni tavsiflovchi proseduralarni tayyorlashi lozim. Proseduralar miqdori va terangligi korxonalar turi, o'lchami, jarayonlarni o'zaro aloqasi va murakkabligi, qo'llanilayotgan usullar hamda ishlarni bajarish jarayonida qatnashuvchi xodimlarining tayyorgarlik darajasi va malakasi kabi omillar sifatida aniqlanishi lozim.

2022–2026–yillardagi prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning Yangi O'zbekiston Respublikasining Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturida sanoat tarmog'i taraqqiyot tendensiyasi bo'yicha maqsad belgilangan bo'lib, unda sanoat tarmog'ida yuzaga kelayotgan omillarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish belgilab olingan.[2] O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni eksport qilish va ularning xorijiy bozorlarda yuqori reytingga ega bo'lishida sifat menejmenti va standartlashtirish masalalarining dolzarb ahamiyat kasb etishi natijasida mahsulotlar sifatini ta'minlash uchun korxonalarining amaldagi boshqaruv tizimiga yondashish talab etilmoqda.

Yirik korxonalarda sifatni nazorat qilish sistemasiga mahsulotni ishonchlilik ko'rsatkichlari bo'yicha nazorat qilish, mahsulotning tajriba na'munalari va maketlarni tekshirish bo'limlari kiradi. Nazorat funksiyalariga bevosita o'lchov vositalaridan, elektron, kompyuter qurilmalaridan to'g'ri foydalanishni ta'minlaydigan, ularning holatini nazorat qiladigan ishlab chiqarishni metrologik ta'minlash ham qo'shib ketadi. Ishlab chiqarish tizimida dasturlarni tayyorlash va kadrlarni o'qitish hamda malakasini oshirish, ularni motivlashtirish va rag'batlantirish sifat masalalarining muvaffaqiyatli yechilishi uchun zarurdir. Har bir korxonalar ham sifatni boshqarish sifatlarini to'liq imkoniyatiga ega emas. Kichik korxonalar, odatda, maslahatchi, injiniring firmalarining xizmatidan foydalanadilar ya'ni sifat bo'yicha muhandis bo'lishi cheklanadi. Mahsulot sifatini boshqarish 2 ta usulda ta'minlanishi mumkin: mahsulotni yaroqli va yaroqsizga ajratish bilan va texnologik aniqlikni oshirish yo'li

bilan. Bozor munosabatlari sharoitlarida korxonaning ishlab chiqarayotgan mahsulotini Jaxon bozorida muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsizligining sababi nimada degan savollar tug'ilishi mumkin. Bunday muammolarni hal qilish uchun korxonada eksport salohiyatiga yangi investitsiyalarni joriy qilishi va tovar raqobatbardoshligini oshirishni ta'minlashi kerak. Korxonada o'zining faoliyati jarayonida tovar raqobatbardoshligini oshirish uchun raqobatbardoshlikni miqdoriy o'lchash imkonini ta'minlashi kerak. Bu jarayon korxonaning eksport salohiyatini oshiradi. Iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi bunday miqdoriy ma'lumotni yig'ish, mahsulot raqobatbardoshligini yaxshilash jarayonining muhim bosqichidir. So'ngi yillarda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni sifati, raqobatbardoshligini oshirish va xalqaro bozorlarda o'z-o'rnini topishiga ko'maklashish maqsadida bir qator zarur loyihalar amalga oshirildi.[2] Jumladan,

– milliy sifat infratuzilmasini xalqaro me'yorlarga moslashtirish maqsadida, texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, muvofiqlikni baholash sohalarini tartibga soluvchi qonun hujjatlari qayta ko'rib chiqildi;

– xususan, 30 mingga yaqin ichki standartlardan qariyb 20 mimgasi xalqaro me'yorlar bilan uyg'unlashtirildi, xalqaro standartlar reestri shakllantirildi;

– tadbirkorlik sub'ektlari uchun mahsulotlarni ishlab chiqarishda va olib kirishda muvofiqligini tasdiqlash tartibotlari xalqaro talablar asosida takomillashtirildi;

– respublikada ishlab chiqarilayotgan va olib kirilayotgan mahsulotlarni xalqaro talablar asosida sinovlarini o'tkazish bo'yicha jami 12ta zamonaviy sinov laboratoriyalari tashkil etildi;

– o'zbekiston ilmiy–sinov va sifat nazorati markazi (Uz Test) va uning 16 ta hududiy filiallari tashkil etildi. Xalqaro tashkilotlarning (ISO, IEC, UNECE, EN, CODEX STAN) standartlari, talab va me'yorlariga muvofiq yuqori texnologiyalar amaliyotga joriy etildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning muayyan davrda bozor talablariga javob berishi, raqobatbardosh bo'lishi uchun ishlab chiqaruvchi korxonada sifat tizimini to'liq tadbiriq qilishga intilishi va uni kerakli darajada ushlab turishi lozim. Korxonada sifat menejmenti tizimini to'g'ri yo'lga qo'yishi uchun resurslardan to'g'ri foydalanishi, mehnat faoliyatini tizimli tashkil etish, bo'linmalar va bajaruvchilar uchun ish sifati darajasining me'yorlari va ko'rsatkichlarini o'rnatishi, bundan tashqari turli xil texnologik jarayonlarning bajarilishini to'g'ri yo'lga qo'yishi kerak. Chunki sifatli boshqaruv tizimi to'g'ri shakllantirilmasa iqtisodiy samaradorlik keskin pasayishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Medvedev A.M Xalqaro standartlashtirish –M.: Standartlar nashriyoti, 1998-yil
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojatnomasi. <<Xalq so‘zi>> gazetasi, 2018-yil 29-dekabr №271–272 (7229–7230) soni.
3. www.standart.uz- O‘zbekiston texnik jixatdan tartibga solish agentligi sayti ma’lumotlari.
4. Yodgorov A. SWOT tahlil. <https://telegeam.ph/swot-tahlil> 2018-yil.